FARG’ONA VILOYATI QO’QON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr 375-11-166-Q/22 Qo‘qon shahar hokimligi

DAFN ETISH JOYLARINI SAQLASH QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi Nizom hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-,25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Farg‘ona viloyati hokimining 2015-yil 19-martdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining havolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 82-sonli hamda 2016-yil 6-maydagi “Viloyatdagi qabristonlarda daft etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 155-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori 1-ilovasida “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qabristonlarni saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish mintaqalarning mahalliy aholisi, shuningdek, boshqa millatlar va xalqlarning mavjud an’analari, urf-odatlari va udumlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Shunga ko‘ra, shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Axmedov), shahar qurilish bo‘limi (A.Ibroximov), shahar Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi (G‘.Mirzamaxmudov), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (A.Isroilov) va qabristonlar ma’muriyatlariga:

qabristonlarni saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish ekologik me’yorlar, sanitariya, shaharsozlik hamda boshqa me’yorlar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi;

qabrlar, sag‘analar, shuningdek dafn etishni amalga oshirishga mo‘ljallangan boshqa binolar va inshootlarni barpo etish uchun ekologik me’yorlarga, sanitariya, shaharsozlik va boshqa me’yorlar hamda qoidalarga muvofiq ajratilgan yer uchastkalari qabristonlar hisoblanadi. Qabristonlar moddiy madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritilishi mumkinligi;

qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish majburiyatini bajarish;

har bir qabriston qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan me’yorlar bo‘yicha tegishli xodimlarga ega bo‘lishi kerak.

Qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta’mirlash, ularni zarur darajada saqlash mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, xarajatlarning alohida moddasi bo‘yicha mablag‘lar ajratiladi. Bunda go‘r qazish va marosim xizmatlari bo‘yicha ishchilarga ega bo‘lish ko‘rsatilgan pulli xizmatlar uchun aholidan tushgan mablag‘lar hisobidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shuningdek, qabristonlarni saqlash va obodonlashtirishda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan foydalaniladi.

Qabristonlarni obodonlashtirish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ko‘magida hashar yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Qabristonga asosiy kirish joyida (ichki tomonida) quyidagilar o‘rnatilishini ta’minlash:

ma’muriy va boshqa binolar, yo‘llar, xiyobonlar, tarixiy va memorial qabrlar, jamoat hojatxonalari va boshqa obyektlarning joylashishi belgilangan holda qabristonning sxematik tarxi;

qabristonning ish jadvali (ziyorat qilish qoidalari) va boshqa yo‘l-yo‘riq hujjatlari qo‘yilgan taxta;

manzillari va aloqa bog‘lash telefonlari ko‘rsatilgan holda tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi), qabriston ma’muriyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Qabristonlar har kuni ziyoratlar va dafnlar uchun ochiq bo‘lishi kerak. Qabristonlarni ochish va yopish vaqti, ularning diniy konfessiya va mahalliy an’analarga mansubligiga bog‘liq holda, shahar va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi) tomonidan belgilanadi.

Qabriston hududida jamoat tartibi va sokinlikni buzish, mast-alast, giyohvandlik va boshqa xil kayflar holatida bo‘lish, qabr usti yodgorliklariga va yashil o‘simliklarga shikast yetkazish, shuningdek quruq o‘t, barg, shox-shabba va daraxtlarning shoxchalarini yoqish, mol va boshqa uy hayvonlarini boqish, mevali ko‘chatlar o‘tqazish, qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘stirish taqiqlanadi.

Qabristonlarda qabriston ma’muriyati tomonidan qabrlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va qabr usti yodgorliklarini ro‘yxatdan o‘tkazishning raqamlangan va ip bilan tikilgan daftarlari, shuningdek hujjatlar tikib qo‘yiladigan yig‘majild yuritilishi kerak. Dafn etishni amalga oshirish huquqini beradigan barcha hujjatlar belgilangan tartibda tikilishi va saqlanishi kerak.

Qabriston hududida zarur darajadagi tartibni ta’minlash va yuqoridagi Nizom hamda boshqa qonun hujjatlarining shuningdek, viloyat va shahar hokimi qarorlari talablarini qat’iyan bajarish;

bosh xiyobon, asosiy va ikkinchi darajali yo‘llarda to‘siqsiz yurish va o‘tish imkoniyatini (qordan tozalash, muzni parchalash, qum sepish va shu kabilarni) ta’minlash;

eskirgan (qurigan) daraxtlarning ag‘darilishi va qabr usti yodgorliklarini shikastlashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularning o‘z vaqtida kesilishini ta’minlash;

umumiy foydalanish joylarini toza saqlash, xiyobonlar bo‘ylab maishiy chiqindilar uchun maxsus yashik va qutilar o‘rnatish, maishiy chiqindilarning qabriston hududidan o‘z vaqtida olib chiqilishini ta’minlash;

muhandislik inshootlarining zarur darajada ishlashini ta’minlash, tashqi to‘siq, bino va inshootlar, yo‘llar, muhandislik tarmoqlari va inshootlarining joriy va mukammal ta’mirlanishini amalga oshirish hamda ko‘kalamzorlashtirish;

barcha turdagi yashil o‘simliklarni sug‘orish va parvarishlashni ta’minlash, ularni yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlarga qarshi kurashish;

fuqarolarga (tashkilotlarga) ularning buyurtmanomalariga ko‘ra dafn uchun uchastkalarni bepul berish;

marhumlarni go‘r qazish me’yorlari va qoidalariga rioya etgan holda dafn etishni ta’minlash;

qabrning ro‘yxat raqamini ko‘rsatilgan beton ustunga o‘rnatish;

anjomlarning (belkurak, panshaxa, paqir, xokandoz, supurgi, zambil va hokazolarning) yetarli miqdorda bo‘lishini va ularning fuqarolarga qabrlarga qarash uchun bepul (tilxat bilan) berilishini ta’minlash;

qabristonda zarur darajadagi tartibni ta’minlash bo‘yicha, shu jumladan umumxalq hashari, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin aloqada bo‘lish;

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibiga, hududni ko‘kalamzorlashtirish uchun daraxt va butalarning turlarini to‘g‘ri tanlashga rioya etilishini nazorat qilish;

dafn etilganning qarindoshlariga eskirib ketgan qabr usti yodgorligi to‘g‘risida yozma xabar qilish va uni tuzatishni talab qilish;

go‘r qazuvchi ishchilar hamda marhumlarni yuvuvchi va kiyintiruvchi ishchilarga sanitariya qoidalarini hamda diniy va mahalliy an’analarni hisobga olib me’yorlarni qat’iyan bajargan holda ishlarni bajarishning xavfsiz usullarini o‘rgatishni tashkil qilish;

qabr usti yodgorliklarining saqlanishini ta’minlash, ular o‘g‘irlangan, buzilgan, vayron qilingan taqdirda huquqni muhofaza qilish organlarini va yodgorliklarning egalarini xabardor qilish;

yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta’minlash, yong‘inga qarshi shitlarni zarur miqdorda yong‘inga qarshi anjomlar bilan butlash;

qabristonning butun hududini har yili kamida ikki marta har tomonlama

supurib-sidirishni amalga oshirish.

Fuqarolar tomonidan o‘tkaziladigan dafn etish marosimlarida sanitariya qoidalari hamda boshqa qoidalar va me’yorlarga zid bo‘lmagan diniy marosimlar va mahalliy an’analarga rioya etgan holda dafn etish udumini bajarishni nazorat qilish;

marosim xizmatlaridan foydalanish va ularga belgilangan tariflar bo‘yicha haq to‘lanishini nazorat qilish;

byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatishga faqat loyiha-smeta hujjatlari hamda viloyat hokimliklarining qarori mavjud bo‘lgandagina ruxsat berilgandagina o‘rnatilishini nazoratga olish;

qabr usti yodgorliklarining o‘lchamlari va joylashtirilishi, shuningdek daraxt va butalar o‘tqazishni oldindan qabriston ma’muriyati bilan kelishilishini nazorat qilish;

qabr usti yodgorliklarining o‘rnatilishi qabriston ma’muriyati tomonidan qabr usti yodgorliklarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftarida ro‘yxatdan o‘tkazilib, unda qabrning sektori, uchastkasi, qatori va raqami, dafn etilgan kishining familiyasi, ismi-sharifi, o‘rnatilgan sana, yodgorlikning qisqacha tavsifi, tayyorlovchi, uni o‘rnatgan shaxslarning manzil va familiyalari ko‘rsatiladi.

Barcha qabr usti yodgorliklari ularni o‘rnatgan fuqarolar va tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Qabriston ma’muriyati tashabbusi bilan qabr usti yodgorliklarini buzib tashlashga yo‘l qo‘yilmaydi, qabriston yuqoridagi Nizomning 18-bandiga ko‘ra yopilayotgan (ko‘chirilayotgan), qarindoshlarning eskirib ketgan qabr usti yodgorliklarini tuzatishdan bosh tortgan, ular belgilangan tartibda egasiz deb topilgan hollar bundan mustasno. Qabr usti yodgorliklarini buzib tashlash qabr usti yodgorliklarining elementlari albatta tavsiflangan, buzib tashlash dalolatnomasi rasmiylashtirilgan holda qabriston ma’muriyati tomonidan amalga oshirilishini ta’minlash.

Tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga ko‘ra rahbarlar va taniqli davlat arboblarining qabrlari va qabr usti yodgorliklarini, tarixiy obidalarni namunali tartibda saqlash mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishini e’tiborga olish;

qabriston yodgorliklardagi yozuvlarning mazmunini nazorat qilib borish,

ularda o‘lim to‘g‘risidagi hujjatlardagi ma’lumotlarga nomuvofiqliklar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

3. Belgilansinki, mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Qo'qon shahar hokimi **M.Usmonov**

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 30 dekabrdagi
375-11-166-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Shahardagi dafn etish joylarini saqlash

QOIDALARI

1. Mazkur qoidalar shahar hududlaridagi dafn etish joylari (keyingi o‘rinlarda qabriston deb ataladi) va qabr usti yodgorliklari inshootlarini saqlash hamda mahalliy aholi, shuningdek, boshqa millatlar va xalqlarning foydalanish tartibini belgiladi.

2.Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi va qabristonlarning ma’muriyati mazkur qoida va boshqa qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan quyidagilarni ta’minlaydi:

Qabristonlarni har kuni ziyoratlar va dafnlar uchun ochiq bo‘lishi,jumladan , diniy konfessiya va mahalliy an’analarga mansubligiga bog‘liq holda ochish va yopish vaqtlari (qabristonning ish jadvali, ziyorat qilish qoidalari) va boshqa yo‘l - yo‘riq hujjatlarini belgilash:

Qabritsonga asosiy kirish joyida ma’muriy va boshqa binolar, yo‘llar, hiyobonlar,tarixiy va memorial qabrlar, jamoat hojatxonalari va boshqa obyektlarning joylashishini belgilangan holda qabristonning sxemati tarxi, shahar Obodonlashtirish boshqarmasi, qabriston ma’muriyati to‘g‘risidagi (manzil va aloqa bog‘lanish telefonlari) va boshqa ma’lumotlarni taxtada ko‘rsatgan holda o‘rnatish:

Qabristonlar hududida jamoat tartibi va sokinlikni buzish ,mast-alast, giyohvandlik hamda boshqa aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi moddalar ta’siri ostida bo‘lish, qabr usti yodgorliklariga va yashil o‘simliklarga shikast yetkazish, shuningdek quruqo‘t, barg, shox-shabba va daraxtlarning shoxchalarini yoqish, chorva mollari va uy hayvonlarini boqish, mevali ko‘chatlar o‘tkazish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘stirishning oldini olish:

Yodgorliklardagi yozuvlarning mazmunini nazorat qilish, ularda o‘lim to‘g‘risidagi hujjatlardagi ma’lumotlarga nomuvofiqliklar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, qabrlarni va qabr usti yodgorliklarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari hamda dafn etishni amalga oshirish huquqini beradigan barcha hujjatlarni raqamlangan va ip bilan tikilgan holda hujjatlarni yig‘ma jildlarini yuritish va belgilangan tartibda saqlash:

Bosh hiyobon, asosiy va ikkinchi darajali yo‘llarda to‘siqsiz yurish va o‘tish imkoniyatni (qordan tozalash, muzni parchalash, qum sepish va shu kabilarni) ta’minlash:

Eskirgan (qurigan) daraxtlarning qulashi va qabr usti yodgorliklarini shikastlashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularning o‘z vaqtida kesilishini ta’minlash:

Umumiy foydalanish joylarini toza saqlash, hiyobonlar bo‘ylab maishiy chiqindilar uchun maxsus yashik va qutilar o‘rnatish, maishiy chiqindilarning qabriston hududidan o‘z vaqtida olib chiqilishini ta’minlash:

Qabristonning butun hududini har yili kamida ikki marta har tamonlama tozalashni amalga oshirish:

Muhandislik inshootlarining zarur darajada ishlashini ta’minlash, tashqi to‘siq bino va inshootlar, yo‘llar, muhandislik tarmoqlar va inshootlarining joriy va mukammal ta’mirlanishini amalga oshirish hamda ko‘kalamzorlashtirish:

Barcha turdagi yashil o‘simliklarni sug‘orish va parvarishlashni ta’minlash, ularni yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlarga qarshi kurashish:

Shahar FXDYO bo‘limi tomonidan berilgan, o‘lim to‘g‘risida belgilangan shakldagi tegishli hujjatlar va sud tibbiy hulosasi berish bilan bog‘liq o‘lim holatlariga oid hujjatlar taqdim etilganidan keyin dafn etish uchun joy (uchastka) ishlab turgan qabristonlarda bepul, qat’iyan sanitariyaga doir va boshqa qoidalar hamda me’yorlarga muvofiq fuqarolarga (tashkilotlarga) ularning buyurtmanomalariga ko‘ra ajratish:

Marhumlarni go‘r qazish me’yorlari va qoidalariga rioya etgan holda dafn etishni ta’minlash:

Qabrga ro‘yxat raqami ko‘rsatilgan beton ustun o‘rnatish:

Anjomlarning (belkurak, panshaha, paqir, hokandoz, supurgi, zambil va hokazolarning) yetarli miqdorda bo‘lishini va ularning fuqarolarga qabrlarga qarash uchun bepul (tilxat bilan) berilishini ta’minlash:

Qabristonda zarur darajada tartibni ta’minlash bo‘yicha, shu jumladan umumxalq hashari, xotiralash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin aloqada bo‘lish:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlariga doir buyurtmalarini

o‘z vaqtida va sifatli bajarish:

Qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibiga, hududni ko‘kalamzorlashtirish uchun daraxt va butalarning turlarini to‘g‘ri tanlashga rioya etilishini nazorat qilish:

Qabr atrofida metalldan yasalgan va boshqa to‘siqlarni o‘rnatish (o‘simliklardan iborat yashil to‘siqlardan tashqari), qo‘shni qabrlarning hududlarini va bo‘sh yer uchastkalarini egallab oladigan qabr usti yodgorliklarini barpo etishni taqiqlash:

Dafn etilgan marhumning qarindoshlariga eskirib ketgan qabr usti yodgorligi to‘g‘risida yozma xabar qilishva uni tuzatishni talab qilish:

Yong‘in xafsizligi qoidalariga rioya etilishini ta’minlash, yong‘inga qarshi shitlarni zarur miqdorda yong‘inga qarshi anjomlar bilan butlash:

Qabr usti yodgorliklarining saqlanishini ta’minlash, ular o‘g‘irlangan, buzilgan, vayron qilingan taqdirda huquqni muhofaza qilish organlarini va yodgorliklarning egalarini xabardor qilish:

Go‘r qazuvchi ishchilar hamda marhumni yuvuvchi va kiyintiruvchi ishchilarga sanitariya qoidalarini hamda diniy va mahalliy an’analarni xisobga olib me’yorlarni qat’iyan bajargan holda ishlarini bajarishning xavfsiz usullarini o‘rgatishni tashkil qiladi.

3. Qabriston xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolar (tashkilotlar)ning xuquq va majburiyatlari:

Tegishli diniy konfyessiya qabristonda, vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun bepul uchastka olish xamda qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan bepul foydalanish:

Sanitariya qoidalari hamda boshqa qoidalar va me’yorlarga zid bo‘lmagan diniy marosimlar va mahalliy an’anlarga rioya etgan holda dafn etish udumlarini bajarish:

Dafn etishni amalga oshirgan fuqarolar va tashkilotlar tomonidan qabrlar hamda qabr usti yodgorliklarini zarur holatda saqlash:

Marosim xizmatlaridan foydalanish va ularga belgilangan tariflar bo‘yicha xaq to‘lash:

Buyurtirilgan xizmatlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini qabriston ma’muriyatidan talab qilish:

Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda yaqinlari va qarindoshlarining qabrlariga qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish:

Qabr usti yodgorliklarining o‘lchamlari va joylashtirilishi, shuningdek daraxt va butalar o‘tqazish oldindan qabriston ma’muriyati bilan kelishiladi:

4. Mahalliy davlat hokimiyati organi mazkur qoida va boshqa qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan quyidagilarni ta’minlashi shart:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va diniy tashkilotlarning takliflarini hisobga olgan holda ekologik ekspertiza va snitariya -gigiyena hulosasi mavjud yangi qabristonlarni barpo etish va ishlab turganlarini qayta qurish hamda ko‘chirish (yopish) ishlarini yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, belgilangan tartibda qarorlar bilan rasmiylashtirish:

Yopilgan qabristonlarga dafn etish, shu jumladan eski qabrga dafn etishni taqiqlash:

Taniqli davlat arboblari va rahbarlarining qabrlari, qabr usti yodgorliklarini, tarixiy obidalar ro‘yxatini tasdiqlash. Mahalliy budjet mablag‘laridan ularni namunali tartibda saqlashni amalga oshirish:

Qabristonlarni ko‘kalamzorlashtirish – qabriston hududi atrofida yashil zona barpo etish, hiyobonlar, yo‘llar, maydonchalar bo‘ylab daraxtlar, butalar va yashil ixota o‘simliklari ekishni mahaliy budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirish:

Aholi punkti uchun qabristonga yer uchastkalari uning hududidan tashqarida, ya’ni qo‘shni tuman (shahar) hududida berilgan hollarda loyihalash, qurish, saqlash va foydalanish bo‘yicha barcha xarajatlar qabriston joylashgan joy mahalliy budjeti hisobiga, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirish:

Xayr-ehsonlarni amalga oshirish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish uchun boshqarma vakili (buxgalter), qabriston nazoratchisi, hududida qabriston joylashgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi (mahala qo‘mitasi) vakilidan iborat tarkibdagi komissiya (keyingio‘rinlarda komissiya deb ataladi)ni tegishli tartibda qarorlar bilan tashkil etadi.

5. Shahar arxitektura va qurilish boshqarmasi, shahar Davlat sanitariya-

epidemiologiya nazorati markazi va shahar tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi mazkur qoida va boshqa qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan quyidagilarni ta’minlaydi:

Ilgari qabristonlar joylashgan hududlardan, ular ko‘chirilgan paytdan boshlab yigirma yil o‘tgandan keyin fodalanishga ruxsat berilgandan so‘ng mazkur hududlardan faqat manzarali yashil o‘simliklar o‘tqazish uchun foydalanishni hamda ushbu hududlarda bino va inshootlar qurishning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish:

Qabristonlarni tashkil etish uchun yer uchastkasi tanlashni shaharsozlik hujjatlari, gidrogeologik tavsiflar, joy relyefining hususiyatlari, tuproq tarkibi, atrof-tabiiy muhitiga eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan ekologik yuklamalari hisobga olingan holda aholi punktlari va hududlarni qurish qoidalariga, shuningdek ,sanitariya me’yorlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilishini hamda dafn joyining belgilanmagan uzoq muddat mavjud bo‘lishini ta’minlash:

6. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirishga yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlarni yig‘ish, hisobga olish va ularndan maqsadli foydalanishni tashkil etish bo‘yicha mazkur qoida va boshqa qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan quyidagidlarni ta’minlaydi:

Yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlaridan (pul mablag‘lar, tovar - moddiy boyliklari berish, shuningdek, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish) qabriston hududini saqlash va obodonlashtirish joriy va mukammal ta’mirlash maqsadlarida foydalanish:

xayr-ehsonlarni yig‘ish uchun qabriston hududida maxsus ajratilgan joylarda plombalangan turg‘un metall yashiklar (qutilar)ni qo‘riqlashni qabristonning xizmat ko‘rsatuvchi xodimi zimmasiga yuklash:

Jismoniy shaxs tomonidan naqd pul mablag‘lari tarzidagi xayr-ehsonlar ismini oshkor etmasdan yoki (jismoniy shaxsning xohishiga ko‘ra) ushbu jismoniy shaxs bilan boshqarma o‘rtasida tuziladigan ixtiyoriy xayr-exson qilish tug‘risidagi shartnomaga asosan beradi.

7. Shahar hokimligi moliya bo‘limi va shahar G‘aznachilik bo‘limii xayr-ehsonlarni jamg‘arish ijrosi bo‘yicha nazoratni mazkur qoida va boshqa qonun hujjatlariga asosan olib boradi.

8. Qabristonlarni yopish to‘g‘risidagi qarorlar majburiy tartibda ommaviy

axbarot vositalarida e’lon qilinib, hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Ushbu turdagi qarorlar ijrosi bo‘yicha va tashkiliy ishlar rejasini tegishli ijrochilarga hamda aholi punktlariga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali ham yetkaziladi.